

O'ZBEKISTONDA IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA IJTIMOIY - IQTISODIY JARAYONLAR

Shohruhmirzo Qurbonboyev

Aniq va Ijtimoiy Fanlar universiteti 2-kurs magistranti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15429469>

Annotation. Ushbu maqolada Ikkinci jahon urushi davrida O'zbekiston SSRda yuz bergen asosiy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yoritiladi. Unda urush davri ehtiyojlariga mos ravishda sanoat va qishloq xo'jaligining qayta tashkil etilishi, aholining va zavod-fabrikalarining keng ko'lalma evakuatsiya qilinishi, shuningdek, ayollar va yoshlarning iqtisodiy hamda ijtimoiy sohalarga safarbar etilishi tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, urush yillarida O'zbekistonda yuz bergen madaniy va ta'limiy jarayonlar ko'rib chiqiladi hamda etnik guruhlararo hamkorlik va ijtimoiy bardoshlilikning shakllanishiga e'tibor qaratiladi. Tarixiy manbalarga tayangan holda, ushbu tadqiqot O'zbekistonning Sovet harbiy harakatlarini qo'llab-quvvatlashdagi strategik o'rnnini va milliy safarbarlik hamda fidokorlik davrida yuzaga kelgan uzoq muddatli ijtimoiy o'zgarishlarni ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar. Ikkinci jahon urushi, O'zbekiston SSR, evakuatsiya, urush davri sanoati, qishloq xo'jaligi, ayollar mehnati, yoshlar safarbarligi, mudofaa jamg'armasi, milliy birdamlik, madaniy integratsiya, ijtimoiy o'zgarishlar, urush davri ta'limi, diniy ishtirok, oziq-ovqat normasi, etnik hamkorlik.

SOCIO-ECONOMIC PROCESSES IN UZBEKISTAN DURING WORLD WAR II

Abstract. This article explores the key socio-economic transformations that occurred in the Uzbek SSR during World War II. It analyzes the reorganization of industry and agriculture to meet wartime demands, the large-scale evacuation of people and factories, and the mobilization of women and youth in economic and social spheres. Additionally, the paper examines the cultural and educational developments in Uzbekistan during the war years and highlights the emergence of interethnic cooperation and social resilience. Drawing on historical sources, the study emphasizes the strategic role of Uzbekistan in supporting the Soviet war effort and the long-term societal changes that resulted from this period of national mobilization and sacrifice.

Keywords. World War II, Uzbek SSR, evacuation, wartime industry, agriculture, women's labor, youth mobilization, defense fund, national solidarity, cultural integration, social transformation, education during war, religious involvement, food rationing, ethnic cooperation.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация. В данной статье рассматриваются ключевые социально-экономические преобразования, произошедшие в Узбекской ССР в период Второй мировой войны. Анализируется реорганизация промышленности и сельского хозяйства для удовлетворения потребностей военного времени, масштабная эвакуация населения и предприятий, а также мобилизация женщин и молодежи в экономической и социальной сферах. Кроме того, в статье исследуются культурные и образовательные процессы, происходившие в Узбекистане в годы войны, подчеркивается развитие межнационального сотрудничества и социальной устойчивости.

Опираясь на исторические источники, автор акцентирует внимание на стратегической роли Узбекистана в поддержке советских военных усилий и на долгосрочных общественных изменениях, вызванных этим периодом национальной мобилизации и самопожертвования.

Ключевые слова. Вторая мировая война, Узбекская ССР, эвакуация, военная промышленность, сельское хозяйство, женский труд, мобилизация молодежи, фонд обороны, национальная солидарность, культурная интеграция, социальные преобразования, образование в годы войны, участие религиозных деятелей, продуктовые карточки, межэтническое сотрудничество.

Kirish

Ikkinci jahon urushi insoniyat tarixidagi eng vayronkor va og‘ir urushlardan biri bo‘lib, butun dunyo xalqlarining taqdiriga keskin ta’sir ko‘rsatdi. Urush nafaqat frontdagi jangovar harakatlar, balki front ortidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar bilan ham muhim ahamiyat kasb etdi. Bu jarayonlar Sovet Ittifoqining barcha hududlari singari O‘zbekiston SSRda ham chuqur iz qoldirdi. Ayniqsa, O‘zbekiston frontni moddiy va insoniy resurslar bilan ta’minlashda muhim strategik hududga aylandi.

Urushning boshlanishi bilan mamlakatda favqulodda holatga xos holatlar yuzaga keldi: sanoat harbiy ehtiyojlarga moslashtirildi, qishloq xo‘jaligida mobilizatsiya boshlandi, aholining katta qismi front va front orti ehtiyojlariga safarbar qilindi. Bu davrda O‘zbekiston hududiga yuzlab sanoat korxonalari ko‘chirildi, millionlab aholi, jumladan, bolalar, ziyorilar, san’atkorlar va mutaxassislar evakuatsiya qilindi. Shu bilan birga, urush yillari o‘zbek jamiyatining ijtimoiy hayotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi: ayollar va yoshlar ishlab chiqarish va madaniy hayotda faol qatnasha boshladi, millatlararo munosabatlar kengaydi, yangi kasb va ijtimoiy tajriba shakllandi.

Ammo bularning barchasi majburiy amalga oshirilishi ham davri edi.

Mazkur maqolada O‘zbekistonda Ikkinci jahon urushi yillarda yuz bergan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, urush sharoitida sanoat va qishloq xo‘jaligining qayta tashkil etilishi, evakuatsiya jarayoni, ayollar va yoshlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni hamda madaniyat va ta’lim sohalarining rivojlanish xususiyatlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Bu jarayonlarning o‘rganilishi nafaqat o‘tmish saboqlarini anglash, balki ijtimoiy chidamlilik va birdamlikning tarixiy ildizlarini ochib berish nuqtayi nazaridan ham muhimdir.

Vatanparvarlik harakati va front ortidagi birdamlik

1941-yil 22-iyunda fashistik Germaniya Sovet Ittifoqiga bostirib kirkach, mamlakat bo‘ylab umumxalq harbiy safarbarligi e’lon qilindi. O‘zbekiston SSR ham bu og‘ir sinov oldida o‘zining siyosiy barqarorligi, iqtisodiy salohiyati va ijtimoiy birdamligini namoyish etdi. Respublikada urushning ilk kunlaridanoq ommaviy mitinglar, ko‘ngillilar harakati, moddiy yordam aksiyalari uyushtirildi. Urushga borish yoki xalq dushmaniga aylanish kerak edi.

23–24 iyun kunlari yirik shaharlarda yuz minglab odamlar ishtirokida mitinglar bo‘lib o‘tdi. 14 mingdan ortiq odam urushga ko‘ngilli sifatida ariza topshirdi. Ularning safida turli millatlar, kasb egalari, ayollar va yoshlarga duch kelish mumkin edi. Bu mintinglar albatta yuqoridaan uyushtirligan o‘ziga xos sahna desak ham bo‘lar edi.

Mudofaa jamg‘armasi va iqtisodiy safarbarlik

Urush boshlangan ilk haftalarda O‘zbekistonda Mudofaa jamg‘armasi tashkil etildi.

Ishchilar, dehqonlar, ziyolilar o‘z ish haqlarining bir qismini, qimmatbaho buyumlarini, davlat obligatsiyalarini jamg‘armaga topshirdilar. 1941-yilning yozida jamg‘armaga 30 million so‘mga teng mablag‘ yig‘ildi. Urush yakuniga kelib bu ko‘rsatkich 649,9 million so‘mga, 22 kilogramm oltin va kumushga yetdi.

Diniy tashkilotlar ham ilk bor ommaviy safarbarlikda faol ishtirok etdi, shu vaqtgacha tayziqqa uchrayotga edi, lekin urush sovet ittifoqini yon berishga majbur qildi. Masjidlarda duo va ma’naviy rag‘batlantirish ishlari olib borildi, diniy mutasaddilar xalqni birdamlik va fidoyilikka undadi. Ilgari rad etilgan diniy institutlarning urush yillarida ahamiyat kasb etishi — sovet tarixidagi e’tiborga molik hodisalardan biridir.

1. Sanoatning harbiy ehtiyojlarga moslashtirilishi

Urushning dastlabki oylaridanoq frontning orqa tayanch bazasiga aylangan O‘zbekiston sanoat salohiyatini harbiy ehtiyojlarga yo‘naltirdi. 1941–1942 yillarda Ukraina, Belarus va Rossiyaning markaziy viloyatlaridan 100 dan ortiq yirik sanoat korxonalari respublikaga evakuatsiya qilindi. Ular qisqa fursatda ishga tushirilib, jangovar mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirildi.

Misol uchun, Toshkent aviatsiya zavodi urush yillarida 10 mingdan ortiq harbiy samolyot detallarini ishlab chiqardi. Chirchiq elektrokimyoviy kombinati esa o‘q-dori va portlovchi moddalarning ishlab chiqarilishida muhim o‘rinni egalladi. Farg‘ona neftni qayta ishslash zavodi frontni yoqilg‘i bilan ta’minalashda uzluksiz faoliyat yuritdi.

1943-yilga kelib harbiy mahsulotlar umumiyo sanoat ishlab chiqarishining 60 foizidan ortig‘ini tashkil etdi. Evakuatsiya qilingan mutaxassislar va zamonaviy texnikaning kirib kelishi mahalliy ishchilarning texnik tafakkurini oshirdi, yangi kasblar, texnologik bilimlar shakllandi.

2. Qishloq xo‘jaligidagi mobilizatsiya va og‘ir sharoitlar

Urush yillarida oziq-ovqat va xomashyo ta’mnoti front va orqa hududlar uchun strategik ahamiyat kasb etdi. O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi — ayniqla paxtachilik, sabzavotchilik, chorvachilik tarmoqlari harbiylashtirildi.

Mehnat resurslarining katta qismi safarbar etilgani sababli, dehqonchilik ishlarini asosan ayollar, bolalar va keksalar bajardi. Ayollar qishloq xo‘jaligi ishchi kuchining 60–70 foizini tashkil etdi. Bolalar paxta terimidan tortib sug‘orishgacha bo‘lgan og‘ir mehnatni zimmasiga oldilar.

Sovet hukumati paxtani “oq oltin” deb e’tirof etdi va uni yetishtirish bo‘yicha qattiq rejalar belgilandi. Biroq ob-havoning qattiqligi, texnika yetishmovchiligi, oziq-ovqat taqchilligi mehnatkashlar hayotini og‘irlashtirdi. Kartochkali ta’mot tizimi joriy qilinib, non, go‘sht, yog‘ kabi mahsulotlar normaga binoan berildi. Bu esa aholining kundalik turmush darajasini keskin pasaytirdi.

3. Evakuatsiya va aholi ko‘chishi

O‘zbekiston SSR urush yillarida SSSRning yirik evakuatsiya markazlaridan biriga aylandi. 1 milliondan ortiq odam, jumladan 200 mingga yaqin bola respublikaga ko‘chirildi.

Evakuatsiya qilinganlar orasida san’atkorlar, olimlar, muhandislar, yozuvchilar, davlat xizmatchilari bor edi.

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon shaharlari asosiy evakuatsiya punktlariga aylantirildi. Mahalliy aholi o‘z uylarini, bor-budini evakuatsiyalanganlarga bo‘lishdi. Bu holat xalqimizning bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik va insonparvarlik fazilatlarini yaqqol ko‘rsatdi.

Evakuatsiya jarayoni millatlararo munosabatlarning kengayishiga, ijtimoiy hayotning kosmopolitlashuviga sabab bo‘ldi. Ko‘plab rus, ukrain, yahudiy oilalari urushdan keyin ham O‘zbekistonda qolib, respublika hayotiga faol integratsiyalashdi.

4. Ayollar va yoshlarning ijtimoiy faolligi

Urush yillari O‘zbekiston ayollarari tarixiy jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Ular nafaqat dehqonchilik, balki sanoat, transport, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalarida ham asosiy ishchi kuchiga aylandi. 1942-yilda Toshkent sanoatida ishlayotgan ayollar ulushi 60 foizdan oshdi.

O‘q-dorichilik, mexaniklik, traktor haydash, temiryo‘l ishlarida ayollar muhim vazifalarni bajardilar. Harbiy kasb-hunarga o‘rgatish kurslari ochilib, ayollarni qisqa muddatda malakali mutaxassisiga aylantirish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Yoshlar esa “Komsomol safarbarligi” orqali paxta terimi, qurilish, temiryo‘l va gidrotexnika inshootlarida ishga jalb qilindi. Bu davr yoshlarning jamoaviy mehnat, fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy faollik tuyg‘ularini kuchaytirdi.

5. Ijtimoiy hayot va madaniyatning urush yillaridagi o‘zgarishlari

Urushga qaramay, madaniyat va ta’lim sohalari faoliyatini davom ettirdi. Toshkentga ko‘chirib kelingan teatrlar, yozuvchilar, kinoijodkorlar O‘zbekiston madaniy hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Aram Xachaturyan, Sergey Eisenstein, Mixail Romm kabi san’atkorlar ijodi Toshkentda davom etdi.

Universitetlar, pedagogika va tibbiyot institutlari faoliyatini davom ettirib, evakuatsiya qilingan talaba va o‘qituvchilarni ham qabul qildi. Bolalar uylarida ta’lim jarayoni tashkil qilindi. Matbuot frontdagi xabarlarni yetkazib, aholining ruhiyatini ko‘tarishda muhim rol o‘ynadi.

Bu davrda O‘zbekiston madaniy hayoti boshqa sovet respublikalari bilan yaqindan integratsiyalashdi, ijtimoiy hamkorlik va tajriba almashish kuchaydi.

Xulosa

O‘zbekistonda IIkinchi jahon urushi yillarida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar mamlakat tarixining murakkab, ammo faxrli sahifalaridan biridir. Urush boshlangan dastlabki yillarda sanoat korxonalarining evakuatsiyasi va ularni qisqa fursatda ishga tushirish, front uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minalash O‘zbekiston xalqining fidoyiligi va tashkiliy salohiyatini ko‘rsatdi. Ayniqsa, ayollar, bolalar va keksa avlod vakillarining og‘ir mehnat sharoitlarida qishloq xo‘jaligini yuksaltirishdagi o‘rnii yuksak qadrlanishga loyiqidir.

Evakuatsiya jarayoni esa nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy integratsiyani kuchaytirdi. Minglab ziyorilar, san’atkorlar va bolalar O‘zbekistonga ko‘chirilib, mahalliy aholining mehmondo‘stligi tufayli yangi ijtimoiy aloqalar va madaniy muhit shakllandi. Bu esa keyinchalik mamlakatning madaniy rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Urush yillarida ayollar va yoshlarning jamiyatdagi faolligi ortdi, ular faqat mehnat emas, balki ijtimoiy-siyosiy hayotda ham faol qatnasha boshladilar.

Madaniyat va ta’lim sohalarining to‘xtab qolmasligi esa O‘zbekiston xalqining ruhiy bardoshi va ma’naviy yuksakligini yaqqol namoyon etdi.

Umuman olganda, Ikkinchı jahon urushi yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar O‘zbekiston SSRda yangi ijtimoiy tuzilmalarning shakllanishiga, iqtisodiy modernizatsiya jarayonining tezlashishiga va millatlararo birligining mustahkamlanishiga olib keldi. Bu davr tajribalari bugungi kun uchun ham saboq va ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Жўраев М. ва бошқалар. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида (Иккинчи китоб). – Т.: Шарқ, 2000.
2. Jo‘rayev N., Karimov Sh. O‘zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2011.
3. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob). – T.: Sharq, 2010.